

Prezident yangi texnopark maydonida bo'ldi



2021 yil 4 fevral kuni O'zbekiston Prezidentining "Toshkent shahrida "Yangi Hayot" industrial texnoparkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi.

Davlatimiz rahbari Yangi Hayot tumaniga tashrifi chog'ida ushbu texnopark quriladigan maydonida bo'ldi.

Bu majmua uchun 210 gektar maydon ajratilgan. Shundan 150 gektari ikki bosqichda auksion savdolariga chiqariladi. Tadbirkorlar sotib olingan yerning mulkdori bo'ladi va korxonalarni o'zlari quradi.

- Toshkentda yer tanqis, kelgusida bunday maydonlar topilmaydi. Har bir qarich yerdan unumli foydalanish kerak. Shuning uchun korxonalar ko'p qavatli qilib qurilgani ma'qul, - dedi Prezident.

Bu yerda joylashtiriladigan korxonalarda 20 ming ish o'rni yaratilishi mo'ljallangan. Umuman olganda, texnopark ishlab chiqarishni kengaytirish, sanoat tarmoqlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shu asosda aholini ish bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu yerda Yangi Hayot tumanidagi korxonalar mahsulotlari ham namoyish etildi.





Manba